

Ro'ziyeva Marjona

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi talabasi

SURXONDARYO TOPONIMLARI ETIMOLOGIYASIGA BIR NAZAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi ba'zi bir tumanlaridagi qishloq, mahalla, ko'cha nomlari bilan bog'liq toponimlar etimologiyasi ko'rsatiladi. Bu so'zlar toponimlarning qaysi turlariga kirishi va yasaliş tarkibi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Toponimlar, gidronimlar, urbonimlar, oykonom, mikrotoponimiya, tub, yasama.

Abstract: This article shows the etymology of toponyms related to village, neighborhood, street names in some districts of Surkhondaryo region. These words will be discussed separately in the article about the types of toponyms and their origins.

Key words: Toponyms, hydronyms, urbonyms, oikonom, microtoponymy, root, artificial.

Аннотация: В данной статье показана этимология топонимов, связанных с названиями сел, кварталов, улиц в некоторых районах Сурхандарьинской области. Об этих словах речь пойдет отдельно в статье о видах топонимов и их происхождении.

Ключевые слова: Топонимы, гидронимы, урбонимы, ойконом, микротопонимия, корень, искусственный.

Toponim - yunoncha "topos", " onyma" so'zlaridan tarkib topgan. Toponim atamasi joy nomi degan ma'noni anglatadi. Joy nomi deganda aholi yashash joylari (respublika, viloyat , shahar , tuman, qishloq, ovul , mavze, daha, mahalla, guzar...); suv havzalari (okean, dengiz, daryo , ko'llar, suvombori, jilg'a , irmoq, hovuz , band , ariq...); yer yuza shakllari (tog', cho'qqi , qoya, balandlik, tepa, jar, maydon, yayov, adir...) nomlari tushiniladi. Ba'zan geografik nomlar , yer-suv otlari deb ham yuritiladi.

Toponimlar quyidagi turlarga ajraladi:

1. Gidronimiya - daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, sharsharalar, bo'g'izlar nomlari;
2. Oronimiya - rel'ef shakllari nomlari (tog'lar, chopqqilar, qirlar, tekisliklar, vodiylar, platolar);
3. Oykonomiya (polinimiya, urbanonomiya) - qishloq va shaharlarning nomlari;
4. Mikrotoponimiya - kichik obyektlar nomlari.
5. Suv bilan bog'liq - gidronimlar;
6. El-elatlar bilan bog'liq etnonimlar;
7. Kishilar nomi -patronimlar, -entroponimlar;
8. Shahar nomi - urbonimlar;
9. O'simlik va hayvon nomlariga qo'yilgan fitonim va zoonimlar;
10. Umuman yer ustidagi aholi manzillari, yo'llar, komunikatsiyalar nomlari - oykonimlar.

Surxondaryo (gidronim)

Surxon + daryo kompozitsiya usulida yasalgan yasama soʻz hisoblanadi. Surxondaryo— Oʻzbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941-yil 6-martda tashkil etilgan (1925-yil 29-iyundan Surxondaryo okrugi boʻlgan). 1960-yil 25-yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qoʻshilgan. 1964-yil fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Viloyat nomi vohadan oqib oʻtuvchi “Surxon” (fors-tojik: “qizil”) daryosi nomidan kelib chiqqan.

XUROSON Surxondaryo viloyatidagi choʻqqi. Qadimgi eroniy tilda xur (quyosh) -oson (joy) - quyoshli oʻlka, kunchiqar tomon.

Muzrabot tumani - (urbonim) Muzrabot tub soʻz hisoblanadi.

Muzrabot – muz va rabot soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Muz – suvning qattiq kristall holati va u harorat 0 °C dan pasayganda hosil boʻladi. Ayrim holatlarda muz soʻzi sovuq maʼnosida ham keladi. Rabot esa dastlab islom dini tarqala boshlagan davrlarda harbiylarga moʻljallab qurilgan bino, istehkom, keyinchalik karvonsaroy (mehmonxona) maʼnosida qoʻllangan. Markaziy Osiyoda VIII — X asrlarda koʻchmanchi aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh joylarda koʻplab rabotlar barpo etilgan. Oʻrta asrga oid shaharlarning savdo va hunarmandchilik doʻkonlari joylashgan qismini ham rabot (ravot) deb atashgan va bu soʻz VIII — IX asrlarda fors, tojik, oʻzbek tillariga oʻzlashgan. Shu bois, bu geografik termin Markaziy Osiyo, Eron va Afgʻoniston hududida keng tarqalgan. Rabot termini koʻplab joy nomlarini ham hosil qilgan.

Guliston qishlogʻi- (mikrotoponimiya) Gul+iston affikatsiya usulida yasalgan yasama soʻz hisoblanadi.

Guliston - bu ot tojik tilida gul otiga "moʻl yerlar " maʼnosini anglatadigan -iston qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilinadigan boʻlib, " gullar makoni " degan maʼnoni anglatadi.

Gulbogʻ koʻcha nomi - (mikrotoponimiya) Gul+bogʻ kompozitsiya usulida yasalgan yasama soʻz hisoblanadi. Gulbogʻ - bu ot tojikcha gul oti bilan bogʻliq oʻzidan tuzilgan boʻlib , "gul oʻstiriladigan bogʻ " , " gul moʻl-koʻllar bogʻ " maʼnosini anglatadi.

Navbahor qishlogʻi -(oykonim) Navbahor tub soʻz hisoblanadi. Navbahor - bu ot tojik tilida "yangi " , "yosh" maʼnosini anglatadigan " nav" sifati bilan "koʻklam" maʼnosini anglatadigan " bahor" soʻzidan tuzilgan boʻlib , "erta koʻklam " maʼnosini anglatadi.

Obodon mahalla - (mikrotoponimiya) Obodon tub soʻz hisoblanadi. Obodon - bu kesimlik tojik tilida Obod sofatiga -on qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib , "koʻrkam gullab yashnagan " maʼnosini anglatadi. Bu kesimlik oʻzbek tilida obodonlik mavhum oti yasalgan.

Sholikor qishlogʻi -(oykonim) Sholikor tub soʻz hisoblanadi. Sholikor- bu ot tojik tilida sholi otiga -kor qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, " sholi yetishtiruvchi dehqon " maʼnosini anglatadi. Bu otdan sholikorlik mavhum oti yasalgan.

Nurafshon koʻcha nomi - (mikrotoponimiya) Nurafshon tub soʻz hisoblanadi. Nurafshon - bu soʻz tojik tilida arabcha nur soʻzi va tojikcha afshondan feeling afsona hozirgi zamon asosida tuzilgan boʻlib "nur sochuvchi " , " porlovchi" maʼnosini anglatadi.

Boldir qishlogʻi - (mikrotoponimiya) Boldir tub soʻz hisoblanadi. Boldir - oyoqning tizza bilan tupiq oraligʻidagi qismi. Kecha koʻp yurganim uchun boldirim ogʻriyapti. Qadimgi turkiy tilida ham shunday maʼnoni anglatgan bu ot baltir tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik t undosh d undoshiga almashgan.

Ilgʻor mahalla - (mikrotoponimiya) Ilgʻor tub soʻz hisoblanadi. Ilgʻor - "oldinda boruvchi " , "peshqadam ". Ilgʻor ishchilarga har oyda mukofot berib turiladi. Asli qadimgi turkiy tilda " old" maʼnosini anglatgan ил otining ыл shaklidan -га qoʻshimchasi bilan yasalgan ылга oldinda bor feʼli

mavjud bo‘lib r qo‘shimchasini qo‘shib bu fe‘lning sifatdosh shakli hosil qilingan "oldinda boruvchilar", bu sifatdosh ma‘no taraqqiyoti natijasida sifatga aylangan.

Sherabot tuman - (urbonim) Sherabot tub so‘z hisoblanadi. Sherabot - ahalliy rivoyatga ko‘ra, „Shvedlar“ atamasi „Shorabot“ — bosh rabot, bosh bekat ma‘nosini bildiradi.

Xatak qishloq - (oykonim) Xatak tub so‘z hisoblanadi. Xatak - o‘zbek tilidagi “xatak” so‘zining ukraincha “xata” so‘ziga shakl jihatdan juda yaqinligi... Bu so‘zlar faqatgina shakl jihatdan emas, ma‘no jihatdan ham yaqin. “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da “xata” so‘ziga “xata, kulba (Ukraina, Belorusiya va RSFSRning janubida: dehqon uyi) deb izoh berilgan. “ Xata” so‘zini qadimgi hungar tilidan kelgan deb izohlashadi. Bu so‘z qadimgi hungar tilidan polyak tiliga “chata” bo‘lib o‘tgan, keyinroq ukrain tiliga ham o‘tgan. Hungarlar turkiy xalq. Chukchilar tilida ham xatani “xatuyun” deyishadi.

Tangi tog‘ nomi - (oronimiya) Tangi tub so‘z hisoblanadi. Tangi (tani) - bu ot tojik tilida tor ma‘noni anglatadigan many (man) sifatiga -y qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib , O‘zbek tilida y tovushining cho‘ziqligi yo‘qolgan ; tojik tilida "torlik" ma'nosini ; O‘zbek tilida " ikki tog'ning ostki tutashgan tor yeri ", "tor dara" ma'nolarini anglatadi.

Zarabog‘ qishloq-(oykonim) . Zarabog‘ tub so‘z hisoblanadi. Zarabog' - Zarog‘an/zarog‘ang(zarang yer, qumloq, qumli joy, qattiq maydon) bog‘ fors tojikcha toshloq joydagi bog‘li qishloq.

Denov tumani - (urbonim) Denov tub so‘z hisoblanadi. Denov - tarixiy qadimiy shahar hisoblanadi.Mahmud ibn Vali (XVII asr) ning yozishicha, Dehinav ajoyib bozori, katta masjidi va xonaqosi bo‘lgan mustahkam qal‘a shahar degan ma‘noni anglatgan.Yozma manbalarda XIV asr oxirlaridan „Dehinav“ shaklida, ya‘ni „Yangi qishloq“ mazmunida tilga olingan.

Hazorbog‘ qishloq -(oykonim). Hazorbog‘ tub so‘z hisoblanadi. Hazorbog‘ - O‘zbek xalqi tarkibidagi hazora qabilasining bog‘i yonidagi qishloq.

Sangardak sharsharasi – gidronomiya. Sangardak tub so‘z hisoblanadi .Sangardak - fors tojikchadan olingan bo‘lib , "aylanasi tog' " degan ma'noni anglatadi .

Jarqo‘rg‘on tuman - urbonim. Jarqo‘rg‘on" jar yoqasidagi qo‘rg‘on" ma'nosidan kelib chiqqan.

Yakdillik ko‘chasi - mikrotoponimiya Yakdil +lik affikatsiya usulida yasalgan yasama so‘z hisoblanadi. Yakdillik - bu kesimlik "bitta " ma'nosini anglatadigan tojikcha yak sanoq soni bilan miqdor ma'nosini anglatadigan dil oti va -lik qo‘shimchasini qo‘shilishidan hosil bo‘lgan , "fikri , maqsadi bir , hamjihat " ma'nosini anglatadi.

Namuna mahalla - (mikrotoponimiya) Namuna tub so‘z hisoblanadi. Namuna- fors-tojik tilidan olingan bo‘lib "aylanasi tog' " degan ma'noni bildiradi.

Oqtepa qishlig‘i - (oykonim) Oq+tepa kompozitsiya usulida yasalgan yasama so‘z hisoblanadi. Oqtepa - mahalliy xalq shevalarida oqto‘ba deb ataladigan bu tepa oq emas. Qadimgi turkiylarda oq - katta ma'nosida ham kelgan . Oqtepa- katta , baland ma'nosida kelgan.

Soqchi mahalla – mikrotoponimiya. Soqchi tub so‘z hisoblanadi. Soqchi- "qurollangan qo‘riqchi ", "pospon" . Bu ot qadimgi turkiy tilda "ehtiyorkor " , "sergak " ma'nosini anglatgan cak sifatidan -чи qo‘shimchasi bilan yasalgan . O‘zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan , ы unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan . Сак+чы= сакчы - сакчи.

Minor qishlog‘i - (oykonim) Minor tub so‘z hisoblanadi. Minor - (lotincha minor — kichik) (musiqada) — 1) garmoniyata asoslangan ko‘p ovozli musiqada asosiy laddlardan biri (aksi — major).Minor — yorug‘lik manbai bo‘lgan joy; mayoq; minora.

Kirpich Jarqo‘rg‘on tuman qishloq –(oykonim). Kirpich tub so‘z hisoblanadi. Kirpich qadimgi turkiy va eski o‘zbek tilida kirpich/kirbich - g‘isht ya‘ni, g‘ishtli tepa yonidag

Oqqo‘rg‘on tuman urbonim. Oq + qo‘rg‘on kompozitsiya usulida yasalgan yasama so‘z hisoblanadi. Oqqo‘rg‘on - Poydevori oqtoshdan, ba‘zan yassi qadimiy, xumdonda pishgan g‘ishtdan, devori g‘isht yo loydan qilingan, katta, hashamatli qo‘rg‘on va uning yonidagi qishloq. Qishloq nomidan tumanga nom berilgan. Zidi Qoraqo‘rg‘on.

Toponimlarni ma‘lum bir xalqning yashash sharoiti , shu hududning urf-odati va xalqning shevasiga moslashtirib tahlil qilinadi. Toponimlar xalq ijodi va ma'naviyatining bir yo ikki so‘zda yozilgan tarixi yoki eng qisqa tarixiy manbalardir. Yuqoridagi toponimlar xalq tarixining, madaniyatining o‘ziga xos o‘tmishi haqida qisqacha ma'lumot beruvchi lug'atdir. Toponimlarga izoh berishda bir qancha manbalardan foydalanildi. So‘zlar etimologik jihatdan bayon etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘ra Nafasov , Vazira Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun) Toshkent : «Yangi asr avlodi» .2007
2. Shavkat Rahmatullayev O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent. Universitet. 2000
3. Shavkat Rahmatullayev O‘zbek tilining etimologik lug‘ati 2-jild (arab so‘zlar va ular bilan hosilalari). Toshkent. Universitet. 2003.
4. Shavkat Rahmatullayev O‘zbek tilining etimologik lug‘ati 3-jild (fors - tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). Toshkent. Universitet. 2009
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/eshqobil-shukur-sozlar-bilan-sozlasuv.html>